



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### JALOLIDDIN MANGUBERDINING SULTON ALOUDDIN QAYQUBOD

#### O'RTASIDA DIPLOMATIK ALOQALARLING MUVAFFAQIYATSIZLIGI SABAB VA OMILLARI

Qodirov Yo'ldosh Ural o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti

4 bosqich talabasi talabasi

#### Anotatsiya

Ushbu tezisda Sulton Jaloliddin Manguberdi va Kichik Osiyo Saljuqiyatlari Ko'nyo Sultoni Alouddin Qayaqubod o'rtasida salbiy munosabatlarning aks etishi, oxir oqibatda umumiy dushman mo'g'llarga qarshi kurashish uchun diplomatik aloqalarning hech qanday naf bermaganligi sabab omillari keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** Jaloliddin Manguberdi, Alouddin Qayaqubod, Shahobiddin an Nasaviy, Xilot, Mo'g'llar, Arzinjon, Ismoililar.

Xorazmshoh Jaloliddin Kirmon, Fors, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Gurjiston va unga tutash yerlarda katta davlat barpo etishga muvaffaq bo'ladi. Bu orada ayrim muslimon amirlari mo'g'ullar bilan birlashib, Jaloliddingga qarshi ittifoq tuzishdi. Balkim shuning uchundir, bu hududlarning haqiqiy egasi Hilot, Jazira, Mayofarikan o'lkalari hukmdori Malik al-Ashraf Jaloliddingga to'xtovsiz o'z elchilarini yuborgan. U Hilot qamalidan so'ng Jaloliddinning Jaziraga ham yurish qilishi mumkinligini o'ylab, avvalroq unga maktub yo'llaydi. Maktubda unga yaxshi qo'shnichilik, do'stona munosabatlarni taklif qiladi.

Bu Shom hukmdorining Jaloliddindan qo'rqqanligini ko'rsatadi hamda kelgusida nafaqat Hilot balki, o'zining boshqa mulklaridan ham mahrum bo'lish xavfi ko'nglini egallagan edi. Ammo, Jaloliddin uning xatlariga javob bermaydi Xuddi shunday xatti-harakatni Qo'niyo sulton Alouddin Qayqubod ham amalga oshirdi. Ayniqsa, Hilot qamali paytida ilgari unga tobe bo'lgan mulklar hukmdorlari: Amid va Husn Kayfiy hukmdori al Malik al Ma'sudning va Mordin hukmdori al Malik al Mansur Nosiruddin Ortuqiyning sulton xizmatiga kirish va unga bo'ysunish niyatini bildirib o'z elchilarini yuborganliklari uni yanada tashvishga soldi. Hilot egallangandan keyin Jaloliddingga asir tushgan Diyorbakr hukmdori Husomiddin To'g'rul ham avval soqchilar orqali, keyin esa, Nasaviy orqali sultonning uni



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o‘z tobelligiga olishini so‘ragan. Sulton uning iltimosini qondirib, Diyorbakrni o‘z hukmronligi ostiga oldi. E’tiborimizni yana keyingi voqealar rivojiga qaratadigan bo‘lsak, Xorazmshohning so‘nggi muvaffaqiyatidan xavotirga tushgan Qo‘niyo sultoni Qayqubod I Sulton Jaloliddinni ilgarigiday G‘arbgan, muslimmonlar ustiga yurishdan ko‘ra mo‘g‘ullar bilan suluh tuzishga undashda va uni muslimmonlar qoni to‘kilishiga barham berishga chorlashda davom etadi. Shu nasihatlar bitilgan maktubni Jaloliddin huzuriga yuboradi. Shu bilan birga, Alovuddin Qayqubod I elchilari Arzon ar Rum hukmdori Rukniddin Jahonshohni o‘zlariga berishni talab qilganlar. Jaloliddin uchun bu talabning bajarilishi, Hilot qamalida juda katta xizmatlar ko‘rsatgan ittifoqdoshi Rukniddin Jahonshohga nisbatan xiyonat bo‘lgan bo‘lardi. Shuning uchun, Sultonning vaziri Sharaf al-Mulk maslahatiga quloq solgan Jaloliddin bu maktubni e’tiborsiz qoldiradi. Elchilar Sharafulmulk huzuridan qaytib ketdilar. Aslida, Alouddin Qayqubod buni oldindan bilgan, lekin uning maqsadi ayyorlik qilib, shu yo‘l bilan Jaloliddinning keyingi rejalarini bilib olishga uringanligi ko‘rinib turibdi. Ko‘pgina tadqiqotchilar Jaloliddinning Qo‘niyo va Damashq hukmdorlari bilan ittifoq tuzmaganligini uning eng katta xatosi bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Ammo, bunday siyosiy va- ziyatda Jaloliddinning ular bilan suluh tuzishi masalasi ham qiyin bo‘lgan. Chunki, bu hukmdorlar faqat o‘z manfaatlarini, o‘z hududlarining dahlsizligini o‘ylagani holda Jaloliddinning umumiy dushman – mo‘g‘ullarga qarshi birgalikda kurashish haqidagi fikrlariga dastlab umuman e’tibor ham bermagan edilar. Jaloliddinning bir necha g‘alabalaridan keyingina bu davatga qo‘shilishga rozi bo‘ldilar. Jaloliddin ularning, ayniqsa, Alouddin Qayqubodning Hilot egallangandan keyin, uning mo‘g‘ullar bilan suluh tuzishga da‘vati, keyinchalik esa, muslimmonlar bilan emas, mo‘g‘ullar bilan kurashish Jaloliddinning asosiy maqsadi bo‘lishi kerakligiga ko‘proq urg‘u berishining orqasida nimalar turganini yaxshi bilgan. Jaloliddinning bu hukmdorlarga umuman ishonmaganligini umrining oxirlarida Nasaviyga aytgan gaplaridan ham bilsa bo‘ladi.

U mashvaratlardan birida sulton bilan yolg‘iz qolganda, Jaloliddin shunday degan edi: “Ularning bizga hech qachon yordam qilmasligiga va boshqalar ustidan g‘alabaga erishishimizga imkoniyat bermasligiga biror marta bo‘lsin shubhalanmaganmiz. Bizga yordam bermaydiganlardan gina-kudurat qilib o‘tirmay”. Demak, Jaloliddin Hindistondan kelganidan beri, bu hududlar hokimlari va hukmdorlariga hech qachon ishonmagan. Chunki bu yerda u nafaqat, Qo‘niyo, Damashq hukmdorlari va Hilot noibi, balki o‘zining ukasi G‘iyosiddin Pirshoh,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qarindoshi Ig‘on Toisiy va Kirmon noibi Baroqxon va boshqa ko‘pgina hokimlar va xalifanig xiyonatiga shohid bo‘lgan edi. Bular unga kuchli ruhiy ta’sir qilgan, albatta. Tarixchi Ibn Bibining “Saljuqnama” asaridagi Alouddin Qayqubodning qo‘shni hududlar bilan olib borgan urushlari haqidagi ma'lumotlardan ham uning faol aggressiv siyosat olib borganligining guvohi bo‘lamiz<sup>1</sup>. Xullas, Alouddin Qayqubod I elchilari Jaloliddin huzuridan natijasiz qaytgach, u Kichik Osiyo, Suriya va Shimoliy Iroqdagi kichik mulklarga keladigan xavfdan qo‘rqib, xorazmshohga qarshi ittifoq tuzishga erishdi. Bu ittifoqqa Damashq hokimi al Malik al Ashraf, Hilot hokimi Ibrohim Shirkuh, Xartabart hokimi Artuqxon, Halab hokimi Shamsiddin Savob, Mayafariqin hukmdori Shahobiddin G‘oziy va Baniyos sultonii al Aziz Usmonlar kirdi. Al Malik al Ashrafga yuborgan maktubida Alouddin Qayqubod I bunday yozgan edi: “Jaloliddinni qilichsiz to‘xtatib bo‘lmaydi; unga hushomadgo‘ylik qilishga intilish befoya. Endi so‘zlarimiz va ishlarimizni kelishuvga olib kelsak va mam- lakatlarimizni himoya qilsak, bas”<sup>2</sup>. Ismoiliylar esa butkul xoinlik yo‘lini tutib, Jaloliddinning mag‘lubiyati to‘g‘risida mo‘g‘ullarga yashirin noma ham yuboradilar. Jaloliddin mag‘lubiyatidan foydalangan mo‘g‘ullar uning Ozarbayjonning Mug‘on, Shirkabutdagi qo‘shin yig‘ishi mumkin bo‘lgan joylariga qo‘qisdan zarba berishdi. 1231-yil bahorida u Ganjga kelib, mo‘g‘ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga maktub yo‘lladi. Maktubga 17 kun javob kutdi, lekin hech qayerdan javob kelmadi. U endi Arrondan chiqib, Kichik Osiyoda kuch to‘plamoqchi edi. Ammo Amid amiri Malik al-Ma’sud taklifiga ko‘ra Ko‘niya sultoniga qarshi kurash rejasini qabul qiladi<sup>3</sup>. Jaloliddin va ittifoqchilar qo‘shini o‘rtasidagi bиринчи jang 1230-yil 7-avgustda Yassi Chaman (Arzinjon yonida) tekisligida bo‘lib o‘tdi. Jaloliddin ittifoqchilarni yengdi, ammo ularni oxirigacha ta’qib etmadi. Bu hol ularga qo‘l keldi. 1230-yil 10-avgustida Ko‘niya sultonii, Xims hokimi, Damashq hokimi, Xartabart hokimi, Halab hokimi, Mayafariqin hokimi va Baynas hokimlari birlashgan ittifoqining ikkinchi jangida Jaloliddin mag‘lub etildi. Jaloliddin faqat Alouddin Qayqubod bilan tinchlik sulhi tuzish va uning yerlariga hujum qilmaslik haqida qasam ichish kerakligini dastlab

<sup>1</sup> Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o‘rnii “Yoshlar Mediaprint”

-T.: 2021. -B. 146-147

<sup>2</sup> Buniyodov Z. Anushtagin – Xorazmshohlar davlati. – B.228-229.

<sup>3</sup> Shixobiddin Muxammad an-Nasaviy. Jaloliddin Manguberdi hayoti. – T.: O‘zbekiston, 2006. -B. 418.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

rad qilib keldi. Ammo, mo‘g‘ullarning bos- tirib kirganligini eshitgach u bilan ham sulh tuzib, yerlariga hujum qilmasliq haqida qasam ichdi. Shundan keyin sulton Xoyga, undan keyin esa G‘ilonga ketdi. Ayni shu paytda Alouddin Qayqubodning asl maqsadi to‘la-to‘kis oydin bo‘ldi. Tez orada u o‘z ittifoqchisi al Malik al Ashrafga xiyonat qilib, Hilotni bosib oldi. U bu bilan cheklanmasdan Arzon ar Rum, Arzinjon, Xarput, Sivas va Mardinni ham bosib oldi. Natijada kechagi ittifoqchilari al Malik al Ashraf va boshqa ayyubiylar Alouuddinga qarshi urush boshladilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, Alouddin Qayqubod hatto Suriya va Misrga qarshi turish uchun mo‘g‘ul xoni O‘qtoya o‘z tobeligini bildirib, elchi yubordi va natijada u mo‘g‘ullarga tobe bo‘lib qoldi. Ammo, bu mazkur davlatning mo‘g‘ullar hujumidan saqlab qola olmadi. Lekin, shu paytda mo‘g‘ullarning hujum qilishi Jaloliddinni yanada og‘ir ahvolga solib qo‘ydi.

Aslida mo‘g‘ullar yuqorida aytganimizdek, O‘qtoyning buyrug‘iga ko‘ra, Xitoy bo‘ysundirilgandan keyingina barcha yo‘nalishlarda asosiy hujumga o‘tishga qaror qilingan edi<sup>4</sup>. Ilgari o‘z maqsadiga erishguncha Jaloliddinga mo‘g‘ullar bilan sulh tuzishga undab kelgan va u bilan ittifoqchilik qi lishga va‘da bergen Alouddin Qayqubodning maqsadlari yanada yuzaga chiqa boshladi. Tarixchilar shu o‘rinda bir masalaga o‘z e’tiborlarini qaratishlari lozimki, nega mo‘g‘ullar bostirib kelmasdan oldin, Alovuddin Qayqubod ko‘p bora Jaloliddinga ular bilan sulh tuzishni taklif qilgani holda, nega bu vaziyatda shu niyatini amalga oshirishga urinmadni? Chunki, ular faqat o‘z mulklari va jonini o‘ylab, vaziyatga qarab ish yuritganlar hamda shuning uchungina Jaloliddinga ishonmadilar yoki atayin “ittifoq tuzishga, birodar bo‘lishga” harakat qildilar. Buni oldindan bilgan Jaloliddin kutganidek, ular bu paytda ham, boshqa paytda ham hech qachon unga yordam qo‘lini cho‘zmadilar va cho‘zmas ham edilar. Alovuddin Qayqubod Jaloliddinga yordam berish o‘rniga, uning og‘ir vaziyatidan foydalanib, unga Hilotni qaytarib berishlarini so‘rab bir necha marta xat yubordi, xolos. Bundan g‘azablangan Jaloliddin esa uning mulklari bo‘lgan Xartbard, Malatiya va Arzinjonga yurishlar uyushtirdi. Natijada u Jaloliddin bilan umuman aloqani uzdi<sup>5</sup>. Jaloliddinning kuchsizlanganidan xabar topgan Ismoiliylar bu haqda mo‘g‘ullarga xabar berdilar. 1231 yil avgust oyida mo‘g‘ullar uning qarorgohiga qo‘qqisdan hujum qilishdi.

<sup>4</sup> Shixobiddin Muxammad an-Nasaviy. Jaloliddin Manguberdi hayoti. – T.: O‘zbekiston, 2006. -B. 151

<sup>5</sup> An-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. -B.285-286.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Jaloliddin amiri Urxonga dushmanni chalg‘itishni buyurib, yolg‘iz o‘zi tog‘ tomon ot qo‘yadi. Orqadan yetib kelgan ikki mo‘g‘ulni o‘ldirib, yo‘lida davom etdi. Diyorbakr qishloqlaridan birida uni kurd qaroqchilari qo‘lga tushiradilar. Bulardan biri Jaloliddinning sulton ekanligiga ishonmay va Axlot qamali paytida xorazmiylar tomonidan o‘ldirilgan akasining o‘chini olish maqsadida nayza sanchib uni o‘ldiradi<sup>6</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o‘rni “Yoshlar Mediaprint”-T.: 2021. -B. 146-147
2. Buniyodov Z. Anushtagin – Xorazmshohlar davlati. – B.228-229.
3. Shixobiddin Muxammad an-Nasaviy. Jaloliddin Manguberdi hayoti. – T.: O‘zbekiston, 2006. -B. 418.
4. Bo’riev O. Toshev N. Jaloliddin Manguberdi (Sarkardalak faoliyati. Manbalar) - T.: O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti. 1999. -B. 28.

<sup>6</sup> Bo’riev O. Toshev N. Jaloliddin Manguberdi (Sarkardalak faoliyati. Manbalar) - T.: O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti. 1999. -B. 28.